

TURKIY LUG‘ATLARDA KELITIRILGAN DARAXT NOMLARI VA UNGA ALOQADOR BA‘ZI SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Ergasheva Oysoat - TerDu talabasi
Ro‘ziboyeva Komila - TerDu talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy lug‘atlarda keltirilgan daraxt nomlarining qo‘llanishi merodlar yordamida yoritilgan, so‘zliklarning lisoniy tahlili, bizgacha yetib kelguncha ko‘plab o‘zgarishlarga uchraganligi tahlillar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: “Devonu lug‘otit turk”, “At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya”, daraxt nomlari, qiyosiy tahlil metodi, fonetik-fonologik tahlil metodi, lingvistik tahlil.

Borlig‘imizni o‘rab turgan tabiat va uning asosiy qismi hisoblangan daraxtlarning qadimda ota-bobolarimiz tomonidan qanday nomlangani va ushbu nomlarning davrlar o‘tishi davomida qanday fonetik, grammatik o‘zgarishlarga uchragani har birimiz uchun qiziq, albatta. Tarixiy lug‘atlardan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘ot-at turk”(keyingi o‘rinlarda M K) hamda “At tuhfat-uz-zakiyati fil lug‘atit turkiya” (keyingi o‘rinlarda At-tuhfa) kabi lug‘atlarda keltirilgan so‘zliklar misolida daraxt nomlarini ko‘rib o‘tamiz.

Turkiy lug‘atlarda “olma daraxti” so‘zini ko‘radigan bo‘lsak, ushbu so‘z “MK”da “алма-olma daraxti”(o‘g‘uzcha) (65-bet) shaklida va xuddi shu lug‘atning yana bir o‘rnida “алмила-olma daraxti” (69-bet) shaklida keltiriladi. Biz bundan ko‘rishimiz mumkinki, bir davrning o‘zida bir so‘z ikki xil ishlatilgan, buning sababi sifatida so‘zning areal tomoni ahamiyatga molikdir. Negaki bir katta hudud ichidagi kichik hududlarning shevalari ham bir-biridan farq qilishi mumkin. “MK”dagi yana bir so‘z shaftoli so‘zini ko‘radigan bo‘lsak, “tülüg erük-shaftoli daraxti”(41-bet) shakilda uchratsak, “At tuhfat” da esa “šäftäli -shaftoli daraxti”(275-bet), “sär erük-shaftoli daraxti”(244-bet), “kägän-shaftoli daraxti” (219-bet) va “kägäm-shaftoli daraxti” (219-bet) kabi ko‘plab turlarini uchratamiz. XI -XIII asrlarda “MK” va “At-tuhfat” kitoblarida shaftoli daraxtining nomlanishining xilma-xilligiga guvoh bo‘lamiz. Birgina “At tuhfat” ning o‘zida shaftoli daraxtining 4 xil nomlanishi borligi asar juda katta hududni qamrab olganini ko‘rsatadi.”MK” da “erük-o‘rik daraxti”(41-bet), “sariğ erük-sariq o‘rik daraxti” (41-bet), “uxaq- o‘rik daraxti” (62-bet), “At-tuhfat” da esa “erük-o‘rik daraxti” (177-bet) shakllarida o‘rik daraxti so‘zi beriladi. XI asrda ham XII asrda ham o‘rik daraxti bir xil nomlanganini ko‘ramiz. Mahmud Koshg‘ariy davrida o‘rik daraxti mevasining rangiga ko‘ra ham farqlanganini va unga alohida nom berilgani ahamiyatlidir. Bu turki tilning so‘z boyligi kuchliligini ochib beradi. Birgina “MK” da olxo‘ri daraxtining bir necha shakllarda nomlanishini uchratamiz. Masalan: “sariğ erük -sariq olxo‘ri daraxti” (41-bet), “amšuy-bir xil sariq olxo‘ri daraxti” (59-

bet), "limkän-sariq olxo'ri daraxti" (176-bet). "MK" da keltirilib o'tilgan manzarali daraxtlardan bir chinor daraxtining ham bir necha xil nomlarini mavjud."çünük-chinor daraxti" (156-bet), "šünük-chinor daraxti"(157-bet), "çarun-chinor daraxti"(166-bet). Ushbu so'zlarda chinor daraxtining tarixiy nomlari orasida fonetik o'zgarishlar bilan farqlar paydo bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, XI asr shevalarida ham fonetik o'zgarishlar mavjud bo'lgan. Lug'atlardagi tok so'zining shakllarini ko'rib o'tadigan bo'lsak,"MK"da "bağ-tok"(375-bet), "üzüm yığaçi-tok"(326-bet), "At-tuhfat"da "tak-tok" kabi ko'rinishlarda uchraydi.Tok so'zi XI asrda hozirgi shaklidan tubdan farq qilgan, lekin XIII asrga kelib fonetik jihatdan hozirgi shakliga juda yaqin bo'lganligini ko'ramiz. Demak, o'tgan 8 asr davomida tok so'zi tak shaklidan faqatgina "a" ning "o" ga o'zgarganining guvohi bo'lamiz. Galdagi so'zimiz manzarali daraxtlardan yana bir tol daraxti haqida. "MK" da "sögüt-tol"(144-bet),"tüğraq- bobil toli"(186-bet), "tawilqu-qizil tol"(193-bet), "At-tuhfat" da "tál-tol" (252-bet) kabi ko'rinishlarda uchraydi. "MK" da muallif tolning bir necha turlari haqida va ularning nomlanishi haqida so'z yuritadi. "At-tuhfat" da esa xuddi tok kabi tolda ham faqatgina unlilarda fonetik o'zgarishlar uchraydi. Terak daraxti haqida to'xtaladigan bo'lsak,ushbu so'z "MK" da "teräk-terak" (165- bet), "At-tuhfat" da "tëräk-terak" (257-bet) shakllarida keladi. Bu so'zda misolida terak so'zi qadimda ham hozirgiday shaklda ishlatilganiga guvoh bo'lamiz. Lug'atlarda daraxt nomlari bilan birga daraxtning atrofida jamlangan unga aloqador bo'lgan ba'zi so'zlarni ham ko'rib o'tdik. Masalan: "MK"da "öz"(33-bet) daraxtning o'zagi ma'nosida, "yığaç" (326-bet) so'zi daraxt ma'nosida, "yapurğaq" (341-bet) so'zi daraxtning yaprog'i, yaproq ma'nosida, "yığaçliq" (341-bet) so'zi daraxtzor ma'nosida ishlatilgan.

Ushbu lug'atlarni ko'rib chiqish davomida "MK" dan daraxt va unga aloqador nomlardan 46 ta so'zlik hamda "At-tuhfat"dan 12 ta so'zlik va ularning ma'noviy qismlari bilan tanishib chiqildi. Demak, kundalik hayotimizda biz uchun oddiy hisoblangan ba'zida ahamiyat ham berilmaydigan daraxt nomlari bizgacha shu ko'rinishda yetib kelguniga qadar ko'plab grammatik, fonetik, leksik o'zgarishlarga uchragan ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk) - G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. -Toshkent, 2017
2. At- tuhfatus zakiyatu fil-lug'atit turkiya (turkiy (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa). -Toshkent: Fan, 1968.
3. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *Modern Science and Research*, 2(3), 142–144.
4. Xidirova, I., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF KINSHIP NAMES USED IN ANCIENT TURKISH DICTIONARIES. *Modern Science and Research*, 2(4), 716-719.